



QANDLI DIABET KASALLIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARNING MARKETING TAHLILI .

Alfraganus universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
Tibbiyot fakulteti Farmatsiya yo'nalishi **Sa'dullayeva Saida Jasurbek qizi**
Farmatsevtika va kimyo kafedrası dotsenti **Madatova Nazira Abdugaffarovna**

Dolzarbli: O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida diabet kasalligini davolashda qo'llaniladigan dori vositalarni ro'yxatga olish tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mahalliy, yuqori samarali qandli diabetga qarshi dori vositalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarb va istiqbolli hisoblanadi .

Qandli diabet sog'liqni saqlashning eng jiddiy muammolaridan biri bo'lib, u aholi salomatligiga, shuningdek, butun dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qiyinchilik tug'dirmoqda. Ba'zi mamlakatlarda diabet kasalligi kamaya boshlagan bo'lsada, so'nggi o'n yilliklarda boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'paygan.

Bugungi kunda Xalqaro diabet federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 20 yoshdan 79 yoshgacha bo'lgan insonlarning har o'n nafaridan bittasiga qandli diabet tashxisi qo'yilgan – bu butun dunyo bo'yicha 537 milliondan ko'proq odam degani.

Kasallik rivojlanishi xavfining asosiy omillari – irsiyat, yengil uglevodlar, tozalangan oziq-ovqat, fasfood , to'yingan va transyog'lar iste'mol qilish, shuningdek, ozuqaviy tolalar yetishmovchiligi, ortiqcha vazn va semirish, endokrin tizimidagi patologiyalar va uzoq muddatli, surunkali stressdir.

Xorijdan keltirilgan dori vositalarini o'rnini bosuvchi qandli diabetga qarshi dori vositalarining keng assortimentini ishlab chiqish va tibbiyotga joriy qilish bugungi kunning dolzarb masalasidir.



Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan qandli diabetga qarshi dori vositalarining 2019-2023 yillar uchun assortiment tahlili o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasida qandli diabetga qarshi dori vositalari bozorini DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida obyekt sifatida O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 - son, 2020 yil 24 - son, 2021 yil 25 – son, 2022 yil 26 - son va 2023 yil uchun 27- sonli "O'zbekiston Respublikasida ro'yxtdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri"dan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 31 avgustda tasdiqlangan “Asosiy dori vositalari ro'yxati” va DRUG AUDIT ma'lumotlaridan foydalanildi.

Usul va uslublar: farmatsevtika bozorining salohiyatini belgilovchi marketing

ko'rsatkichlaridan biri dori vositalarining bozorini tahlili hisoblanadi

Natijalar 2023- yil 31 avgustda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Asosiy dori vositalari ro'yxati"da qandli diabetga qarshi dori vositalarga tarkibida dapagliflozin, gliklazid, glimepirid, metformin, sitagliptin va empagliflozin kabi asosiy ta'sir qiluvchi modda saqlagan dori vositalari kiritilgan.

2018-2022 yillar oralig'idagi o'zgarishini DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra 2018-2019 yillarda qandli diabetga qarshi dori vositalarini

O'zbekiston farmasevtik bozoridagi o'sishi bir oz pasaygan, lekin 2020 yildan keyin yil sayin

qandli diabetga qarshi dori vositalarining bozordagi ulushi ortib borgan va bunga



proportsional ravishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qandli

diabetga qarshi dori vositalarning ham bozorga ishlab chiqarish soni ortib borgan.

Qandli diabetga qarshi qo'llaniladigan dori vositalarning assortiment tahlili "O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri" asosida olib borildi. 2023 yildagi №27-sonli O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestrini tahlil qilinganda, Davlat Reestridan umumiy 171 nomdagi qandli diabetga qarshi dori vositalari ro'yhatdan o'tkazilgan. Ulardan 31 nomda (18,1%) dori vositalari mahalliy farmatsevtik korxonalari ulushiga, 30 nomdagisi (17,5%) dori vositalari MDH mamlakatlari ishlab chiqaruvchilari ulushiga va 110 nomdagisi (64,3%) dori vositalari ishlab chiqaruvchi xorijiy davlatlarning ulushiga to'g'ri keladi.

Xulosa. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan

qandli diabetga qarshi dori vositalar soni bo'yicha o'sgan, shuning bilan birga chet eldan va

MDH davlatlaridan keltirilayotgan dori vositalaring ulushi ham oshgan.

Hozirda bozorda mavjud bo'lgan qandli diabetga qarshi dori vositalarning kattagina qismini xorijiy farmatsevtik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari tashkil qilmoqda. Bundan tashqari mahalliy bozorda mavjud bo'lgan va chetdan olib kelinayotgan qandli diabetga qarshi dori vositalarining ayrim dori shakllarida (inyektsion eritma va suspenziyalar) ishlab



chiqarish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, mahalliy farmasevtik korxonalar tomonidan qandli diabetga qarshi dori vositalarni yangi farmakologik guruhlarini va yangi dori shakllarida ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мадатова Н. А., Тоштемирова Ч. Т. МАРКЕТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ПРОТИВОДИАРЕЙНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ //Universum: медицина и фармакология. – 2024. – №. 4 (109). – С. 46-53.
2. Madatova N. A., Ibragimova G. B. Pharmacoeconomic analysis of medicines used in the treatment of itsenko-cushing's disease //Conferencea. – 2022. – С. 81-82.
3. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri.